ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Ochilova Nafisa Ubaydullo qizi

Osiyo xalqaro unversiteting talabasi

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA O'QITUVCHI ROLINING TRANSFORMATSIYASI:PEDAGOGIK FUNKSIYALARNING EVALUTSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi natijasida o'qituvchi rolining transformatsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiysi sharoiyida an'anaviy pedagogik model asta-sekin o'zgarib, o'qituvchining funksiyalari bilim uzatuvchidan ko'ra fasillitator, mantor va moderatorga aylanishi kuzatilmoqda. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosida adaptive o'qitish tizimlari , avtomatlashtirilgan baholash algoritimlari va individual ta'lim traektoriyalarining shakllanishi o'rgatilada. Shu bilan birga ,inson omillining pedagogik jarayondagi o'rni xususan, empatya, ijtimoiy –emotsional kompitensiyalar va tarbiyaviy ta'sirning ahamiyati asoslab berilgan . Maqolada sun'iy intellektning ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkonyatlari bilan bir qatorda , uning cheklovlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shun ko'rsatadiki, sun'iy intellekt o'qituvchini almashtiruvchi emas, balki uning pedagogik faoliyatini optimallashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi . Shunday qilib ,kelajak ta'lim tizimi inson va texnologiya sinergiyasiga asoslanadi.

Kalit so'zlar

Intellakt ,innovatsion ta'lim,pedagogik transformatsiya, raqamli pedagogika, kopitensiya, adaptive ta'lim, fasilitator, o'qituvchi roli.

Kirish

Global ta'lim raqamli transformatsiya jarayoni barcha sohalarda qator tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda . Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida yangi metodlar , vositalar va yondashuvlar shakillanmoqda. Bu esa o'qituvchi faoliyatining mazmuni va vazifalarini qayta ko'rib chiqishini talab etadi. An'anaviy modelda o'qituvchi bilimning asosiy manbai sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda u o'quvchini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellekt va paradigm o'zgarishi. Sun'iy intellekt ta'limda adaptive tizimlar orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadi. BU esa "bir xil yondashuv -barchaga" prinsipida vos kechib , shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantiradi. Natijada pedagogik paradigma transmissiv modeldan konstruktiv va kompetensiyaga asoslangan modelga o'tmoqda.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchi quyidagi rollarni bajaradi: Fasilitator (o'quv jarayonin yengillshtiruvchi), Mentor (yo'naltiruvchi), coach (rivochlantiruvchi), Mediator (ijtimoiy muhit boshqaruvchi). Bu o'zgarish O'qituvchidan nafaqat predmet bilimini, balki yuqori darajadagi pedagogik va kommunikativ kompetensiyalarni ham talab qiladi.

Sun'iy intellektning imkonyatlari : Real vaqt rejimini baholash va tahlil qilish.

Individual o'quv trayektoriyalarini yaratish. Katta hajimdagi ma'lumotlarni qayta ishlash . O'quv jarayonini avtomatlashtirish . Biroq sun'iy intellekt insoniy ,hissiyot, motivatsiya va tarbiyaviy ta'sirni to'liq qamrab ola olmaydi. Inson omillining ahamiyati: Pedagogik jarayonda empatya, ijtimoiy intellekt va emotsional qo'llab –quvatlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchining shaxs sifatida shakillanishida o'qituvchining tarbiyaviy roli beqiyosdir. Sun'iy intellekt esa bu funksiyani to'liq bajarolmaydi, chunki u inson tajribasi va qadriyatlarini uzata olmaydi. O'qituvchi va sun'iy intellekt sinergiyasi .Kelajak ta'lim tizimi o'qituvchi va sun'iy intellekt hamkorligiga asoslanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari O'qituvchining texnik yukini kamaytiradi ,o'qituvchi esa ijodiy , tarbiyaviy va strategik vaziyalarga ko'proq e'tiborqaratadi. Bu sinergiya ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Transformatsiyon yondashuv –bu talabaning bilimga , tajribaga, muammolarga va o'ziga bo'lgan munosabatini o'zgartirish orqali yangicha tafakkurga yo'naltirish metodidir. Ushbu yondashuv Mezirov , Illeris kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmariga asoslanadi; Ushbu yondashuv quydagilarga asoslanadi:

Refleksiya- shaxsning o'z bilim va tajribalarini tahlil qilish . Muammoli vaziyatlar orqali o'rganish –mavjud bilimlar transformatsiyasi : Faol va interaktiv ishtirok –shaxsiy o'sishni taminlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik funksiyalar tubdan o'zgarib bormoqda . Bu o'zgarishlar, avvallo, global raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi va ta'lim paradigmasining almashuvi bilan izohlanadi . Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak , rivojlangan davlatlarda o'qituvchining roli "bilim ma'nbai''dan ta'lim jarayonini boshqaruvchi "ga aylanganini ko'rish mumkin . Masalan Filandiya ta'lim tizimida o'qituvchining individual rivojlanishini qo'llab –quvvatlovchi mentor sifatida faoliyat yuritadi. Bu modelda o'qituvchi o'qituvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Natijada o'quvchilar yuqori darajalik tanqidiy fikrlash va muammolarn i hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. AQSH ta'lim tizimida konsturuktiv yondashuv keng qo'llanilib, o'qituvchi fasilitator rolini bajaradi. Bu yerda o'quvchilar bilimni tayyor shakillda emas ,balki mustaqil shakilda izlanish orqali egallaydi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va motivator vazifasini bajaradi . Bu yondashuv o'quvchilarning ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Janubiy Kareya va Yaponya tajribasida esa intizom , texnologiya va innovtsiya uyg'unligi asosiy o'rin egallaydi. Bu mamlakatlarda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi , balki texnologiyalarni samarali qo'llovchi mutaxassis sifatida shakilllangan . Ayniqsa, raqamli platformalar va sun'iy intelekt vositalari o'qtuvchining ishini yengillashtirib , individual yondashuvni kuchaytirmoqda. pedagogik funksiyalar evolutsiyasida yana bir muhim jihat –ijtimoiy –emotsional kompetensiyalarning ahamiyati oshibborayotganidir. Zamonaviy o'qituvchi faqat akademik bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning psixologik holatini tushunuvchi, ularni qo'llab –quvatlovchi shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu holat ayniqsa inklyuziv ta'lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir ga sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi pedagogik funksiyalarni yanada diversifikatsiya qilmoqda. Masalan , avtomatlashgan baholash tizimlari o'qituvchining vaqtini tejab, uni ijodiy va strategikfaoliyatga yo'naltirish imkonini bermoqda . Biroq jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki , hech bir texnologiya inson omili to'liq almashtira olmaydi.

Xulosa qilib aytgangada, pedagogik funksiyalar evalutsiyasi – bu o'qituvchi rolini qisqartirish emas, balki uni yanada murakkab va muhim darajaga olib chiqish jaroyonidir. Zamonaviy o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki shaxsni shakillantiruvchi, yo'naltiruvchi va

rivojlantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi . Jahon tajribasi esa bu o'zgarishlarni muqarrar ekanligini va kelajak ta'limi aynan shu yo'nalishda rivojlanishni tasdiqlaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish , o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish va samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda . Sun'iy intellekt davrida o'qituvchi roli yoqolmaydi , balki yangi sifat bosqichiga ko'tarikladi. Talim tizimimning kelajdagi o'qituvchi va texnologiyaning uyg'un hamkorligiga bog'liq bo'lib, bu jarayon pedagoglardan moslashuvchanlik , kreativlik va yuqori kasbiy kompetensiyalarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sun'iy intellekt asoslariga o'rgatish//Kasb-hunarga ta'limi.-2021.-N03
2. O'zbekiston Respublikasi" Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.2020-yil 23-sentabr,O'RQ-637.
3. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Perezidenti nutqi.''Yangi Ozbekiston taraqqiyot strategiyasi"dan-Toshkent,2022-yil.
4. Xolmurodov ,b.(2025).Sun'iy intellekt texnologiyalari orqali talabalar qobilyatini baholash va ularga mos dasturlarni taklif qilish."ACTUNUUZ'"1(1.3.1),205-207.
5. Z.Mansurov (2024). Informal ta'limning o'qitish samaradorligini oshirishdagi roli. Talqin va tadqiqotlar ilmiy –uslubiy jurnali,2(54),232-237.
6. N.N.Azizxo'jayeva .Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.T.Nizomiy nomidagi T D P U.2006-yil.
7. A.Avloniy "Turkiy guluston yoxud axloq "T-2018, Yoshlar nashriyoti.
8. Abduqodirova,A.(2020). Innovatsion pedagogika va ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari. Toshkent:Fan va texnologiya.
9. Raximov N.M. Intellektual o'qitish tizimlarida bilimlarni ifodalash modellari.TATU xabarlari.Toshkent.N-2010.64-68b.
10. G'ulomov S.S va boshqalar " axbarot tizimlari va texnologiyalari". Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik.-T:"sharq",2000y,336-338 b.